

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining o'qituvchisi,

Xaitbayeva Nazokat Adilbek qizi

E-mail: nazokatxaitbayeva@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisda Pedagogik muloqot madaniyati hamda pedagogning rahbariyat, hamkasblar, talabalar bilan muloqot jarayonida nutqiy etiket qoidalariga amal qilgan holda fikr almashishi, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishi haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, faoliyat, termin, tushuncha, fikr, g'oya, nutq, innovatsiya, jarayon.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda talabalar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam zavq bo'ladi.¹

Zamonaviy pedagogika nuqtayi nazariga ko'ra, multimedia vositalari o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilayotgan kompyuter texnologiyalariga tayanilgan yangicha yondashuv hisoblanadi. Bu vositalar dars jarayonida talabalar faolligini oshirishda, belgilangan vaqtdan unumli foydalangan holda o'r ganiladigan o'quv materiallarining hajmini ko'paytirishda va ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki, multimedia texnologiyalariga asoslangan darslarni tashkil qilishda o'qituvchi dastlab vaqt chegarasini, talabalarning imkoniyatini e'tiborga

¹ Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Qarshi: Nasaf, 2011.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

olgan holda dasturga muvofiq tarzda o‘rganilayotgan mavzuning multimedia ilovasini yaratadi (yoki tayyor multimediali manbalardan foydalanadi).

Multimediadan joy olgan grafik tasvirlar, harakatli va ovozli holatlar, murojaatlar o‘quvchini yanada faollashtirib, bahs-munozaraga, tafakkurga chorlaydi. Shuningdek, talabalarning kompyuter savodxonligini rivojlantirish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Multimedia vositalari zamonaviy pedagogik texnologiyada ko‘rgazmali vositaning yangi shakldagi o‘ziga xos ta’lim berish manbasi sanaladi. Sababi, mashg‘ulot davomida o‘rganiladigan materiallar oldindan kompyuter xotirasiga joylashtirilgan bo‘ladi. O‘qituvchilar qaysi mavzuni talabalarga o‘rgatmoqchi bo‘lsa, kerakli ma’lumotlarni monitor ekraniga chaqiradi va namoyish etiladigan materiallar bilan talabalarni tanishtiradi. Shu asosda ular mavzu yuzasidan namoyish etilgan materialarni o‘rganib boradilar. Bunda talabalar kompyuter bilan ishslash uchun yetarli darajada ko‘nikma hosil qiladi. Eng muhimi esa, multimedia mahsulotlaridan foydalanish jarayonida ilk boshlang‘ich ta’limni o‘zlashtirayotgan talabalarning tafakkuri rivojlanadi, bilim olishga qiziqishi ortadi va dunyoqarashi kengayib boradi. Bu o‘z navbatida talabalarning o‘zbek tili faniga oid tinglab tushunish, so‘zlab berish, o‘qish va yozish singari kom-petensiyalarini rivojlantirishga; axborot (media manba)lar bilan ishslash, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi tayanch kompetensiyalarini takomillashtirishga munosib zamin yaratadi.

Demak, to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik muloqot talabada qo‘rquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tug‘ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me’yorining buzilishi kabilarga sabab bo‘lsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada talabalarda o‘qishga va mustaqil o‘rganishga, fikrlashga bo‘lgan qiziqish ortadi. Pedagogik muloqot o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik jarayon ham sanaladi. Muloqot jarayonida talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedova H. O‘zbek tili o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. – T.: Navzo‘z, 2016. – B. 215.
 2. An investigation of literature teaching methodologies at a higher educational institution in Oman. TESOL journal, Vol 6(1), June 2012.
 3. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi –T.: Fan va texnologiya, 2008.
 4. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. – B. 44.
 5. Jumaniyozova M.T., Ishmuhammedov R.J. Ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. – T.: Iste’dod, 2010. – B. 140.
 6. Неъматов X., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент: Ўқитувчи, 1993, 96.
 7. Qo‘ng‘urov R. Sub’ektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari T.: 1980.
 8. Қамбаров F. Баҳо лисоний ва мантиқий категория сифатида. Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Андижон, 1995
 9. Rahmatullayev Sh. hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T.: Universitet, 2006. – B. 436.
 10. Rosenblatt L. Literature as Exploration. London, “Heinemann”, 1970.
 11. Sayfullayeva R.R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 391 b.
 12. Пассов Е. И. Коммуникативные упражнения (пособие для преподавателей). – Москва–Ленинград: Просвещение, 1967. – С. 84–91.
- Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. – T.: TDYI nash